

# AHMAD A'ZAM

## NIMA QILIB QO'YGAN EKANMAN?

### *Novella*

Bugun ertalab betimni yuvayotib birdan ishga borgim kelmay qoldi, o'zi har kuni shunday bo'laman, kech yotaman-da, keyin ertalab turishim qiyin, ey, xudo, yana shu ishga borishim kerak, a, deb joyimdan qoz'galmim kelmaydi, ishyoqmaslikdan emas, har kuni borib, har kuni bir xil ish qilishdan konglim qolgan, lekin, bari bir, turaman, choy-poyimni ichib, otlanaman, shunga, ya'ni ishga borgim kelmasligiga, lekin, bari bir, ishga borishga organib ketganman. Har kuni shu ahvol, ishga borganimdan keyin, nimadir bo'lsa, kimdir boshasa, kimdir yangi kelsa, jilla qursa, hamkasblarning birovi toy qilsa yo... xullas, doimgi ishimizda jinday o'zgarish bo'lsa, ishxonaning hamishalik hayotiga sal boshqacha mazmun kirgandek tuyuladi-da, yana hammasi osha-oshu iziga tushib ketaveradi. Badga urib qolgan, borgim kelmaydi, yo tangrim, nahotki bir umr bir xilda yashab o'tib ketaversam, deyma-da, shu umrimdagi bir xillikni qanday o'zgartirishni bilmay, qiynalib boraveraman.

Bugun esa betimga sovuq suv tegdiyu birdan ishga borgim kelmay qoldi. Ishga bormaganimda ham, bir kun-ikki kun, boring-ki, bir hafta bormasman, lekin bari bir, boshqa boradigan joyim, qiladigan boshqa yumushim yoq, bari bir, boraman, lekin xuddi shu bugun orqamdan miltiq tirashsa ham, bormayman, topga solib, ishxonaga qaratib otsalar ham, tushmay, havoda bir aylanib kelib, bari bir, uyga qaytib tushaman, dedim.

Bemalol otirib, choyni xotirjam qaytarishimdan shoshmayotganimni xotinim ham sezdi shekilli:

- Tinchlikmi? – dedi.

- Tinchlik, - dedim.

- Sizga nima bo'ldi? – dedi u.

- Hech narsa? – dedim. – Ishga borgim kelmayapti.

Xotinim menga qandaydir begona qaradi-da:

- Nimaga bunday qilyapsiz? – dedi.

- Nima qilibman? – dedim. – Shu, bugun borgim yoq. Borchining mokisimanmi, boraman-kelaman, boraman-kelaman, bugun bormay-chi, - dedim.

- Bormasangiz bormassiz, lekin... hayronman sizga, - deb u bir xavotirli gap qildi.

- Ōzi har kuni borgim kelmaydi, bugun esa bormayman, bor gap shu, nimasiga hayron bolasan? – dedim.

- Bormayman deganingizga emas, ōzingizga hayronman, - dedi xotinim.

- E-e, qoysang-chi, ōzim ōsha ōzim-da, - dedim.

Xotinim menga ğalati qarab qoydi.

“Qiziq, odam bir kun ishga bormayman desa, boshqacha korinar ekan-da, kel, ertalabdan konglini xira qilmay”, deb oyladim.

Xotinim ishga ketdi, bolalarim men turguncha oqishiga jonagan, uyda bir ozim qoldim. Zerikib uydan chiqdim, hovli, hamma narsa joy-joyida turgan bolsada, kozingga bom-bosh korindi, bostirma tagidagi mashinam ham tort ğildiragini erga tirab, ma'nisiz jim qotgan, kechasi bostirma yoğochida tunaydigan bema'ni musichalar tomiga, orqa oynasiga shapaloq-shapaloq qilib otirib tashlagan, hozir kalitini burasam, har kungidagidek gurillamaydigandek tuyuldi.

Engil shabada seziladi, soridagi tokning quruq xazonlari titraydi, havo chalakam-chatti xira bulut, na ochiq, na buzuq.

Darvoza eshigini ochib, qaradim, hech kim yoq, mahalladagi kattalar ishga, kichkinalar oqishiga ketgan, koçhaga, ho, hali, tushdan keyin jon kiradi, hozir sorashadigan ham odam korinmaydi.

Oylanib turgan edim, uy tomondan zing-zing etgan bir tovush keldi, xayol bilan avval anglamadim, keyin bilsam - telefon! yugurdim, Faxriddin ekan.

- Ō-ō, aka, bir sorab qoyay deb, telefon qilsam, ishxonada yoqsiz, – dedi.

- Bugun ōzinga bir dam beray degandim, - dedim.

- Sal tovushingiz boshqacha, nima boldi ōzi? – dedi Faxriddin.

- Yoğ-e, hech gap, - dedim.

- Odam xavotir oladi, aka, bilib qoyay degan edim, - dedi Faxriddin.

- Tinchlik, tinchlik, rahmat soraganingizga, - dedim Faxriddinga.

Odamoxun, yaxshi yigit shu Faxriddin, kongil sorab turadi doim. Odamning shunaqa ukalari, dostlari bori yaxshi-da, ōzingni yolğiz bilmaysan. Xurshid, Murod, Nazar, Ibrohim, Farhod, Normurod, Najmiddin aka, erkin - hammasi shunaqa, kongil yaqin odamlarim. Odamning mingta tanishi boladi, yuztasi bilan sorashib yuradi, lekin haqiqiy dosti uncha koپ emas, besh-oltita, boringki, onta.

Xuddi shuni oylab turgan edim, konglimdagini sezgandek Rustam aka sim qoqdi.

- Ha, qalay? Tinchlikmi? Ishda yoqsiz? Odam soğinib qolar ekan, munday gaplashib turaylik, - dedi.

Unga ham, ha, bugun shunaqa-shunaqa, deb tushuntirdim.

- Ōylayvermang, odam ōziga ham qarashi kerak, - dedi Rustam aka.

- Oylaganim yoʻq, - dedim.

Rustam akaning gap ohangida nimadir bordek tuyuldi, lekin parvo qilmadim, u kishi oʻzi shunaqa – doim mehribon, odamni avaylagisi keladi, shunchaki aytyapti-da deb oyladim. Lekin sal oʻtmay telefon yana jiringladi, Farhod ekan.

- Nega ishga bormadingiz? – dedi. – Nima qilib qoʻydingiz oʻzi?

- Hech narsa qilganim yoʻq, ishga chiqmadim, shu xolos, - dedim.

- Buni aytmayapman, - dedi Farhod .

- Nimani boʻlmasa? – dedim.

- Bir gap yuribdi, hayron boʻldim? Ha, mayli, oldimda odamlar bor, oʻzim telefon qilaman, - deb Farhod gʻoshakni qoʻyib qoʻydi.

Farhod ham qiziq, bir gapni boshlaydi-da, uzib qoʻyadi, keyin ishga chalʻgib, esidan chiqib ketadi, topib, boya nimani aytmoqchi edingiz, deb sorasangiz, “Qachon? Qaysi gap edi oʻzi?.. e-e, ha, u-mi, hal boʻldi”, deydi. Biron ishingizga oʻzi jon kuydirib yordam bermiqchi boʻlsa ham, qaytaqayta esiga solmasangiz, unutib qoʻyadi, keyin “Mingta ishim bor, kalla qoladimi, nega aytib turmadingiz?”, deb doʻq uradi.

Farhod qanaqa gapni aytmoqchi ekan, deb oylab, yana oʻzimni biron narsa bilan chalʻgitsammi, deb turgan edim, telefon jiringladi, Farhod, hozir nima dedim, deb soraydi, deb oylab, gʻoshakni olsam, boshqa odam, ovozi sal tanishroq.

- Salom, o-o! Meni taniyapsanmi oʻzi? – deb senladi.

- Tanigandayman, - dedim dudmol qilib.

- Unda, ayt, qani, kimman? – dedi.

Noqulay boʻldim, ezmalanmay, oʻzi ayta qolsa oʻlarmi ekan.

- Ha, jora, bunaqa qipsan? Sen bilan joramiz deb, yurardim, hayron boʻldim, bunaqa odam emas eding-ku...

Bu valdirvoqi bilan qachon jora kirishgan ekanman deb, ensam qotib turib, birdan esladim – Butunboy, sinfdoshim.

- E-e, Butunboy! Qaydan telefon qilyapsan? – dedim.

- Taniging ham kelmadi-ya? - dedi Butunboy. – Shu erda, “Chinobod”daman, haq bersammi, deb ishingga telefon qilsam, yoʻq ekansan. Bir oʻgiz aytsang boʻlardi, oʻlar joyda emasman, maslahatlashardik.

Butunboy azaldan shunaqa: maktabdaligimizda ham nima qilmaylik, menga oldin aytmabsizlar, deb arazlar edi, toʻqqizinchi sinfda Karim Maʼrifatni yaxshi koʻrib qolgan ekan, shu Butunboyning quloʻgiga etibdi, tanaffusda uch-tortovimiz boshqa narsalarni gapirib otirganda, birdan Karimga: “Nega menga aytmadingiz?”, deb tumraydi, Karim quloʻgicha qizarib ketib: “Nega aytishim kerak? Sening qizimi u?”, dedi, Butunboy esa astoydil yiʻgʻlamsirab, “Axir, joramiz-ku, Maʼrifat ham biz bilan bitta sinfda oʻqisa, bir oʻgiz maslahat solsang, oʻlar joyda emasman-

ku, odamni bunaqa chetga surib qoyish yaxshi emas-da”, dedi. Butunboyga hamma jora, hamma qiladigan ishini oldin unga aytishi kerak, lekin u tumanda tursa, ikki yildan beri korishganimiz yoq, nima qilib qoyibmanu unga nima deb maslahat solaman?

Hay, arazlama, men hech narsa qilganim yoq, shoshma, deb tushuntirgunimcha, “Ha-a, aytging kelmayapti, senga men odam emasman-da, a”, deb u goshakni qoyib qoydi.

Butunboyni arazlatish ham, konglini olish ham oson, erta yo indin “Chinobod”ga borsam, hammasi joyiga tushadi, lekin ungacha etgan gapning ozi nima ekan, ishxonaga telefon qilib sorasammi, deb choqlanib turgan edim, telefonning ozi jiringladi. Xurshid ekan.

- Oyi, menga qarang, yana nima qilib qoydingiz? – dedi u dabdurustdan.

Xurshid ozi shunaqa, men bilan tutun qaytarib gaplashadi, juda qalinmiz, mendan ikki yosh kichkinayu lekin akasinib, mendan doim xavotirda, men-ku, unga zararim tegadigan bir narsa qilmayman, lekin nuqul: “Hech tinch yurmaysiz, odamni juda qiynab yuborasiz-da”, deydi, toqli yolda ketayotgan bolsam ham, ishqilib, toqli yuring-da, deyaveradi. Mashina olayotganimni aytganimda, “endi odamni toza tamom qilar ekansiz-da”, dedi, “Mashina oladigan men-ku, nega siz tamom bolasiz?”, desam, u: “Haydashni bilmaysiz-ku!”, dedi, men: “Ola solib haydab ketavermayman, axir, organaman, maktabida oqiyapman-ku!”, dedim. “Piyoda yurishingiz shuncha tashvish edi, endi buyoqli yurak oqliri ekan-da”, dedi u. Xafa boldim, “O, jora, qachon, nima qilib sizning yuragingizni oqlitdim?”, dedim. U bolsa uf tortib, “Shu ketishingizda siz bir kuni bir nima qilib qoyasiz, ungacha men yuragimni changallab kutib otirishim kerak”, dedi.

- Hech nima qilib qoyganim yoq, Xurshid, - dedim. – Nega bu hammalaring soraysizlar?

- yana kimlar telefon qildi? – deb soradi Xurshid.

- Ontasi! – deb zarda qildim. – Hammasi nima qilib qoydingiz deydi!

- Ana, aytmadimmi? – dedi Xurshid. – Bir narsa qilib qoygansizki, buni bitta men aytmayapman.

- Xop, Xurshid, men nima qilib qoyganimni bilmayman, sizlar bilsangiz ayting: nima qilib qoyibman ozi?

- Oyi, qiziq odamsiz-da? Ozi kechasi bilan yuragim sanchib chiqdi, ertalab doxtirga ham otdim, asabiylashgansiz, deydi, asabim buzilganining sababini topolmadim, gap bu yoqda ekan-da, odamni qiynashni qachon bas qilasiz? - dedi Xurshid.

- Xurshid, jon dostim, hech narsa qilib qoyganim yoq, uyimda bir kun tinchgina otiraman degan edim, bolgani shu, sizlar bolsa...

- Sizlar, sizlar emish, - deb Xurshid gapimni boldi, - sizga faqat ozingiz bolsa, odamni ayashni bilmaysiz...

Xurshid achchiq qilib goshakni qoyib qoydi.

Buning iddaosini qarang! Tavba, nima qilib qoygan ekanman? “Nima qildingiz?” ham emas, hammasi “Nima qilib qoydingiz?” deydi-ya! Xuddi men o‘g‘ir bir jinoyat qilgan yo bir begunohni bilib o‘ldirib qoygandek! Bugun ishga bormaganimga osmon uzilib erga tushmagandir, axir? O‘zi ishxonada qiladigan aytarli ishim ham yo‘q, bir oylik ishni bir haftada, qattiq otirsam, ikki-uch kunda saranjomlab, bemalol yuraman, yuztaning bittasi xodimman, hafta-on kun bor-yo‘qligim ham bilinmaydi, hayronman, yo biron gap chiqdimikan, deb telefonga qolimni uzatgan edim, hali goshagini ushlamasimdan ozi jiringlab yubordi, yuragim o‘ynab kotarsam, yana Xurshid!

- O‘v, - dedi Xurshid boyagidan sal muloyimroq.

- Ha, Xurshid? – dedim.

- Shu, jora, achchi‘im chiqib, qattiq gapiribman, uzr. Mana, yana dori ichib oldim, - dedi. - endi joralarni o‘zgartiradigan yoshda emasmiz, u yoshligimizda oldimizda vaqt ko‘p, joralarni bemalol yangilasa bo‘lardi. Bu yo‘g‘iga saralanib qoldik, borimiz shu, bir-birimizni avaylashimiz kerak. Dostlik ham umrga o‘xshaydi, orqaga qaytmaydi, to‘g‘rimi?

- To‘g‘ri! – dedim ta'sirlanib.

- To‘g‘ri bo‘lsa, joralarning kongliga ham qarang-da, – dedi Xurshid. – Men sizga kerakmanmi ozi?

- Ha, keraksiz, - dedim.

- Unda siz ham menga keraksiz, ko‘p qiynamang, - dedi Xurshid.

- Xurshid, jon o‘gayni, nima qildim ozi sizni qiynab qoygan? – deb yalindim unga. – Munday tushuntiring, nima gap ozi?

- Obbo, yana qaytadan boshlayapsizmi? Qoying shuni,– deb Xurshid yana xunob bo‘ldi. – Axir, siz bir nima qilib qoysangiz, men shunchaki o‘zimni avaylab otirolmayman, bilasiz-ku, iltimos...

Xurshid yana bir oz dard qildi, uni ayab, ham bari bir, undan boshqa gap ololmasligimni bilib, nima qilib qoyganimni so‘ramadim.

Goshagini qoyishim bilan yana telefon jiringladi, bunga ham bir gap bo‘lgan shekilli deb oylab, yana kotardim. Ukam ekan. Konglim sezganidek, bu ham sorashmayoq:

- Aka , nima qilib qoydingiz ozi? – deb shu gapni boshladi. – Bizni oylash sizda sira yo‘q ekan-da shu. Otamiz nima deb vasiyat qilganlar sizga? Shu ukalaringga qara, qaramasang, hammasi har xil yo‘lga kirib ketadi, deb bizni sizga topshirib ketganlar, axir! Sizning esa qilib yurganingiz teskari, sizga qarab yurishimiz kerak...

- Hech narsa qilib qoyganim yo‘q, meni eshitsang-chi, - degan edim, gapimni kesdi.

- Yoq, eshitmayman! Siz meni eshiting, – dedi. – Doim shunaqasiz, men bunaqa qilsam, ukalarimga nima bo'ladi deyish yoq, oz bilganingizdan qolmaysiz. Xuddi sizga uka bo'lganimizga biz aybdordek.

Jahlim chiqib ketdi:

- Ov, menga qara! – dedim.

- Qaramayman! Shu vaqtgacha qaradim, etadi, - dedi ukam.

- Qaramasang qarama! – dedim. – Nima, otammisan, nuqul aql orgatasan, men senga yosh bola emasman-ku! Nega tushunmaysan? Men hech nima qilib qo'yganim yoq! Jimgina otiribman, ahmoq!

- e-e, o'zingiz... - Ukam meni ham "Ahmoq" demoqchi edi, o'zini tutib qoldi. – Men kuyinganimdan aytyapman, odamlarning o'g'zi bor, falonchining akasi shunaqa qilib qo'yibdi, degan gap yaxshimi? Men nima degan odam bo'laman, axir?

- Hech narsa, ukam, odamlarga bu bilan bir qorindan talashib tushganmiz, lekin aka-uka emasmiz, deysan, bo'ladimi? - deb uzib oldim ukamni.

- Sizchalik til bilmaymiz, mayli, aka, siz dono, biz ahmoq, - deb ukam arazlab goshakni qo'yib qoydi.

Hammaning ukasi shunaqamikan, xuddi men oldin tu'g'ilib, unga tegishligini o'zimniki qilib olgandek gapiradi-ya! Ba'zan alam qiladi, ba'zan esa, ukam-da, joni achiganidan gapiradi, deb shaytonga hay beraman. Faqat hozirgisi juda oshib tushdi, mayli, o'ziga kelib qolar, ukam-da, arazi necha kunga borardi. Lekin o'zi nima qilib qo'ygani ekanman? yo ishxonada biron gap chiqdimikan?

Ishxonaga sim qoqqan edim, goshakni Najmiddin aka oldi, salomlashganimdan keyin soradim:

- Najmiddin aka, ishxonada nima gap?

- Ishxona joyida, ukajon, o'zingiz-chi? - dedi Najmiddin aka.

- Men ham joyimda, ya'ni uyimdaman, otiribman, - dedim. – Hammasi telefon qilib nima qilib qo'yingiz, deb soraydi, hayronman.

- Men ham hayron otiribman, - dedi Najmiddin aka, - bir nima qilib qo'yadigan odam emas edingiz, deb.

- O'zi nima qilib qo'ygani ekanman, sorang-chi? yo boraymi o'zim? – dedim.

-Yoq, kelib yurmang, shu erdamiz-ku, siz bir nima qilib qo'ysangiz, shunday qarab otirmasmiz? - dedi Najmiddin aka.

- Nima qilib qo'ygani o'zi? Hamma soraydi, hech kim bir gap aytmaydi-ya, – dedim.

- Mayli, - dedi Najmiddin aka mayinlik bilan, - ko'p oylanmang, balki otib ketar.

Ana xolos! "Otib ketar", degani nimasi? Najmiddin aka bosiq-vazmin, unchamunchaga ochilavermaydigan odam, menga taskin berib gapiryaptimi, bir narsa

qilib qoʻyanga oxshayman. yo shu yaqin-ortada birontaning konglini oʻgʻritdimmikan? Toʻgʻri, tilim yomon, gohida hazilimning tagi zil chiqadi, oʻzim ham bilmay qolaman. Uch-tort oy oldin ishxonaga kelgan bir tanishim koʻpchilikka gap bermay, oʻzini ma'qullab otirgan ekan, men kirib: "Nima bahs oʻzi?", desam, u "Bular men bilan bahslashadi-ya, axir, har kuni yigirma tort soat uxlamay ilm qilaman, bilaman buni", dedi, tilim qichib, "Bu odam bilan bahslashmanglar, har kuni yigirma tort soat uxlamay ilm qiladigan odamdan har gap chiqib ketishi mumkin", degan edim, hamma kulib yubordi, oʻzi ham, sal rangi oʻzgardi-yu, qoʻshilib kuldi, lekin uch kundan keyin azza-bazza xonamga bostirib kirib, "Nega meni oʻsha kuni koʻpchilikning oldida erga urdingiz?", dedi, "E-e, qoʻysangiz-chi, qanaqa erga urish, hazil-ku?", desam, u: "Yigirma tort soat uxlamay ilm qiladigan odamdan har gap chiqib ketishi deganingiz hazil emas?", dedi, "Bolmasa, nima?", desam, "Siz meni jinni dedingiz!", dedi, "Qoʻysangiz-chi, shuni ham kongilga olasizmi? Hay, kulishdik-da, kulmasak, bu dunyoda zerikib ketamiz-ku", desam, "Siz odamning ustidan kulyapsiz-ku", dedi, "Xop, oʻgayni, tegib ketgan boʻlsa, uzr, kechiring", desam, "Siz avval odamni oʻldirib, keyin, uzr, oʻldirib qoʻyibman, deyar ekansiz-da, a? Yoʻq, uzringizmi pishirib eng!", dedi, "Xop-e, nima qilay boʻlmasa? Oʻsha odamlarni topib, "Oʻgaynilar, bu odam jinni emas ekan", deb aytaymi", desam, "Mana, shu gapingiz bilan ham odamni mayna qilyapsiz", deydi! Xullas, u desam, bu deb, kayfiyatni bir tiyin qildi, "e-e, har kuni yigirma tort soat uxlamay ilm qiladigan odam jinni boʻlmay, nima boʻladi, boring, bir toyib uxlang, tuzalib ketasiz", dedim. Oʻzi yaxshi odam, quyuq sorashib yurardik, lekin shu bilan oramiz buzilib qoldi, endi meni koʻrsa, ola qaraydi. Lekin keyingi kunlari boshqa yana birovga yomon gapirganimni eslolmayman. Bular ham nima qilib qoʻydingiz deb, boshqa odamga bir nima qilib qoʻyganimni emas, oʻzim nima qilib qoʻyganimni sorashyapti. Birovga bir nima qilib qoʻyganimda, albatta, nega falonchiga bir nima qilib qoʻydingiz, deb otini ham tutgan boʻlar edilar. Demak, oʻzim bir nima qilib qoʻyganman. Oʻzim bilmay nima qilib qoʻygan boʻlishim mumkin, axir? Bularning sorovi xuddi nega bunday oʻz joningga qasd qilding deganga oxshab ketadi-ya, astaʻfirulloh! Shu oʻylayman deng, oʻyimning tubiga etolmayman. yo ishxonadagi hujjatlarni chalkashtirib yubordimmikan? Yoʻgʻ-e, unda boshqacha gap boʻlardi. yo birontasi biron tuhmat oʻyladimikan, a? Yoʻq, nimamga tuhmat qilardi, men katta amaldor boʻlsamki, birontasi joyimga koʻz olaytirsam, oʻzimning ham birovni aʻgʻdarib, uning joyiga chiqish niyatim yoʻq. yo oʻzim bilmay biron gʻiybat gap aytib yubordimmikan? eslolmayman, oʻzi shunaqa gaplarga umuman aralashmayman. yo noxosdan bironta joramni sotib qoʻyibmanmikan? Mumkin emas, chunki joralarimdan birontasi sotadigan ish qilmaydi. yo... qiziq, kattaroq bir narsa, masalan, Vatanni sotadigan biron xufiya narsaga aralashib qoldimmi, oʻzim bilmay? esing joyidami, deyman, oʻzimga oʻzim, oʻzing kim boʻlding-u, sening vatanni sotishga urinishing nima boʻladi, chumoli chumoliga osmonni sotmoqchidek kulgili-ku bu. yo birontasi shunaqa deb yozib yubordimmikan? e-e, yoʻq, hozir bunaqa yozadiganlar ham, bunaqani oʻqiydiganlar ham yoʻqolib ketdi-ku, deyman yana. yana nima qilib qoʻygan boʻlishim mumkin? Xavotirga tushib, xayolning mingta kochasiga kirib chiqaman, nima qilib qoʻyganimni bilolmayman,

lekin bularning sorashiga qaraganda, aniq bir nima qilib qoyganman, deyman, javob topolmayman.

Uyda u yoqqa yuraman, bu yoqqa yuraman, oylayman: nima qilib qoygan ekanman, bundan kora har kungi organganim ishga borsam yaxshi emasmidi, deyman. Bugun, kecha, otgan kuni, bir haftada, bir oy, ikki oy oldin qilgan ishlarimni bir-bir eslayman, yomoni tugul, aksiga olib, yaxshilari ham esimga kelmaydi, shu ortada biron bir tuzuk ish qilmabman, shu – ishga borib kelaverganimdan boshqa narsani topolmayman. yo ilgariroq bir narsa qilib qoyganim kelib-kelib endi ochildimikan? Ilgari nima qilib qoygan bolishim mumkin? Hamma qatori yashab kelyapman, birovdan pastroq, birovdan balandroq, ishqilib, shoxim yoq... Ha, endi, bu dunyoda yuz foiz begunoh odamning ozi bolmaydi, otmishini kavlasa, tabiiy, u-bu gunohi topiladi, boshqalardan yashirgani bilan, ozi biladi, kopri mayda-chuyda, vaqt otib, eskirib ketgan, aytib, boshqalarning vaqtini olishga ham arzimaydi. Lekin bu yaqinlarimning e'tiboriga arziydigan bir nima qilib qoyganman, shekilli, hammasi nima qilib qoydingiz, deyapti. Nima qilib qoygan bolishim mumkin ozi?

Bir ishxonaga borib nima qilib qoyganimni soragim keladi, bir sorashni ko'z oldimga keltirib, yuragim orqaga tortib ketadi: borsam, hammasi ortaga olib, nima qilib qoydingiz ozi, deb sorasa, nima qilib qoyganimni bilmasam, mening nima qilib qoyganim ularga ayon, ozimga esa noayon bolsa, ishxonada nima qilaman, deyman.

Bir vaqti darvozaning eshigi qarsillab ketdi, ozi shunaqa, moylanmagan, ochib-yopganda qarsillaydi, xotinim ishdan qaytib keldi. Rangi bir hol, menga tashvish bilan qaraydi deng.

- Ha, tinchlikmi, javob oldingmi? – deb soradim.

- Yoq, qanday otiraman? Hamma soraydi, eringiz nima qilib qoygan ekan deb, ezilib ketdim, - dedi.

- Ey, jonim, mana, ozim ham oylab otiribman, nima qilib qoygan ekanman, deb,- dedim.

- Ukangiz ham telefon qildi, - dedi xotinim.

- Qoyaver, mening ham boshimni qotirdi, - dedim.

- Qishloqdagi ukangiz, uyga tusholmapti, doim telefon band, dedi.

- E, ha, tinchlikmikan?

- Akam nima qilib qoydilar ozi, deb mendan soraydi, - dedi xotinim.

Hayronligimdan kalam ishlamayotgandek tuyuldi.

- Kimdan eshitibdi? – dedim talmovsirab. – Yoq-e, hech nima qilib qoymagan bolsam, nimani ham eshitardi?

- Yo'dan telefon qilyapman, dedi, hali-zamon kelib qolsa ham kerak, - dedi xotinim, bemalol joylashib.

Hozir bu ham boshlaydi, deb oylagan edim, yana telefon jiringladi.

- Sen ol, meni yoq, deb ayt, - dedim xotinimga.

Xotinim telefonni olgani zahoti sorashib ketdi:

- Ha, rahmat! O'zingiz yaxshimisiz, bolalaringiz yaxshimi? Ha... ha, uydalar...

Men: "Yoq, de!", deb shivirladim, qo'limni silkitdim. Xotinim esa: "Hozir", deb kafti bilan goshakni yopdi-da, menga:

- Qanday yoq, deyman, Murod aka-ku! – dedi.

- Ha, Murod bo'lsa, ber goshakni, - dedim.

Murod menga ko'p ham telefon qilavermaydi, juda ishlik odam, keyin, hamma do'sting bilan har kuni gaplashavermaysan-ku, uzoqdan ham qalin do'st bo'lib yuraverasan, onda-sonda uchrashib qolganing ham etadi, ko'ngil uzilmasa bo'ldi-da.

- Qanday, yomon yoqmi? – dedi Murod, gap ohangidan sezdimki, unga ham etib borgan.

- Yomon yoq, Murod aka, - dedim, do'stim bo'lsa ham, rahbar odamga uncha botinolmayman, uchrashganda Murodning otini aytaman, telefonda esa, shu quti rasmiyroqmi, aka deb yuboraman.

- Yomon yoqqa o'xshamaydi-ku, - dedi Murod. – Shu paytgacha bir nima qilib qoymagan edingiz-ku?

- Murod aka, o'zim ham boshim qotib o'tiribman, nima qilib qo'yan ekanman deb, - dedim rostdan ham boshim qotib.

Murod chuqur nafas oldi, uning hatto moylovini silab o'tirishi ham ko'z oldimga keldi.

- Hay, qarang-da, jora, biron yordam kerak bo'lsa, kotibamga tayinlab qo'ydim, aytsangiz, darrov ulaydi, - dedi Murod.

- Yoq-e, rahmat, siz ovora bo'ladigan hech narsa yoq, - dedim.

- Tortinmang, - dedi Murod, - Bir do'stning keragiga yaramasak, nimaga yashab yuribmiz o'zi. O'ylayvermang, biz ham sizni shunday tashlab qoymaymiz...

Murodning gapidan ham ta'sirlandim, ham ko'nglimdagi gulgula kuchaydi: nima, biron kulfatga uchradimmi, nega xuddi men chorasiz qolgandek, yordam qo'lini cho'zyapti, nima qilib qo'yanman o'zi, a? O'zimning ahvolim bu, yana xotinim ham menga hamdard qaraydi.

- Menga bunday termilib o'tirishingdan nima naf? Ishingga borsang-chi? - dedim unga.

- Sizni shu ahvolda tashlab-a? Bormayman, – dedi xotinim.

- E, bor, - dedim. – Ahvolimga hech narsa bo'lgani yoq. Tushlik qilib ol-da, ishxonangga bor.

- Ovqat otadimi shu topda? – dedi xotinim.

- Bolmasa o'sha erda tamaddi qilarsan, - dedim.
- O'zi nima qilib qoydingiz? – dedi xotinim.
- Ikkovlashib oylasak ham topolmaymiz, – dedim.
- Uyda o'zingiz otiraverasizmi shunday? – dedi xotinim.

Xotinimni bir amallab ishiga qaytarib yubordim. Uyda yana bir o'zim, joyimda otirolmayman, tinmay u yoq-bu yoqqa yuraman, lekin telefondan uzoq ketmayman. Shu yapaloq quti, jim, ammo istagan paytida jiringlab yuborishi mumkin. Albatta, bir yaqinim sim qoqib, nima qilib qoyganimni soraydi. Men esa, axir, nima qilib qoygan ekanman, deb uning o'zidan sorayman. Ishqilib, endi telefon qilmasinlar-da, deb oylanaman, ammo jim tursa, tors yorilib ketay deyman. Balki birontasi nihoyat nima qilib qoyganimni aytib qolar deyman.

Nazar telefon qildi, u hech qachon ko'p gapirmaydi, “Ha, aka, yaxshimisiz? O'zim shunday”, deydi. Gapni men gapiraman, u indamay eshitadi.

- Nazar, jora, odam doim bir xilda yashayvermaydi-ku, to'g'rimi? – deyman. – Bugun ishga bormadim, lekin hamma nima qilib qoydingiz, deb bezor qilib yubordi. Gap ishga bormaganimda emasga o'xshaydi.

- E-e, men nima deyishim mumkin? – deydi Nazar. – Qachon nima qilib qoygan bo'lsangiz, o'zingiz to'g'rilab ketgansiz-ku. Men, qani bu, aka nima qilib qoygan ekan, deb telefon qilayotganim...

Ana xolos! eng suyanganlarimdan biri Nazar bo'lsa-da, bu ham menga shunaqa deb tursa!

Erkin telefon qildi:

- Salom! A, a? Nima edi? Ha, bu, jora, Murod bir gap aytdi, bilasiz-ku, chap quloq uncha eshitmaydi. Goshakni shu quloqqa tutgan ekanman, shoshilish-da, jora, yomon eshitdim, sizni bir nima qilib qoyibdi, dedi. A, a? Obbo, shoshmang, jora, telefon yana shu quloqda ekan. Ha, mana, gapiring!

- Hech nima qilib qoyganim yo'q, erkin, - dedim.

- Endi yaxshi eshityapman, - dedi erkin. – Nimaga hech nima qilib qoyganingiz yo'q? Murod shunaqa deyapti-ku, Xurshiddan ham soradim, Usmon telefon qildi menga, ukangiz bilan gaplashdim. Nega hech nima qilib qoymagansiz?

- Rost, hech nima qilib qoyganim yo'q, erkin, - dedim xunobim oshib.

- Endi, shu, jora, qariyapmiz shekilli-da, - deb erkin xaxolab kuldi. – Nima qilib qoyganingizni o'zingiz bilmasangiz, biz bilmasak, bu yo'gi g'alati bo'ldi-ku! Qizzitaloq, bu yoqda quloqdan olib tursa. O'zi korishmaganimizga qancha bo'ldi?

- Uch oy, - dedim taxminlab.

- Uch oy? – dedi erkin hayron bo'lib. – Ibrohimnikida otirganimizga uch oy oy bo'ldimi-ey? Kunning tez o'tishini!

- Ha, kun tez otyapti, umr ham, - dedim.

- E, bu yaxshi emas, bir shaharda turib uch oydan beri korishmasak, - dedi erkin kuyinib. – Uchrashib turaylik-ey!

- Albatta, - dedim erkinga.

Rostdan, shu topda har kuni-kunora korishadigan joralarimni ham, onda-sonda uchrashadigan dostlarimni ham korgim kelib qoldi. Kunda yo oyda korishamiz, salomlashamiz, hol-ahvol soraymiz, korishib turaylik, bir choyxona qilaylik, deymiz, lekin gapimiz qisqa, chala, yo'l-yolakay, ammo boshimizga bir dard tushsa, darrov birlashamiz, faqat shu birlashish kunini kutib yashashimiz kerakmi, deyman, mana, oxirgi jamuljam toplanganimiz Shavkatning janozasida edi, boshimiz birikib, bitta yigini ichdan yigladik, "Shavkat hammamizni yana birlashtirib ketdi-ya", dedik, bir-birimizning oqargan sochlarimizga, mayda ormalagan ajinlarimizga, darddan moltayib qolgan ko'zlarimizga zimdan tikilib, yana bittamizni yoqotib qoyishdan xavotirga tushdik, shu qorquv bizni osha kunlari juda yaqin qilib qoydi, lekin yana har birimiz oz uyimiz, ishimiz, tashvishimizga tarqalib ketdik...

- Erkin, hayotning urushidan eson-omon otib kelayotgan etti-sakkiz jora ekanmiz, qarang, hammangiz mendan nima qilib qoydingiz, deb tashvishdasiz, lekin men nima qilib qoyganimni bilmayman, - dedim.

- Nima qilib qoyganingizni bilmayman-u, - dedi erkin. – Lekin gapni olasiz. "Hayot urushidan eson-omon otib kelayotgan etti-sakkiz jora..." Zor! Falabani ham nishonlab turaylik, shunda bir-birimizning nima qilib qoyganimizni bilib turamiz. Bopti, jora...

Bopti-ku-ya, jora, lekin men har kuni ishga borib kelishdan, turmushning oqimida umrim bir zaylda qalqib otib ketishidan salgina toriqqan edim, xolos. Hech shikoyat qiladigan joyim yoq, lekin xuddi birovning umrini ozinga vazifa qilib olgandekman, hayotim ham ishxonaga oxshaydi, birovning tartibi bilan yashayotgandekman, bir toxtab, shoshma-chi, bu har kuni ishga borib-kelish bilan qayoqqa boryapman-u, kim bo'lib etaman osha manzilga deb bir kungina oylasam, degan edim, ozi bitta, lekin tumonat savolning ichida qoldim. Hech nima qilib qoyganim yoq, bir nima qilib qoygan bo'lsam ham, ozim oylab topolmayapman shuni, joralarimga bu dunyoda borligimdan boshqa biron naf keltirmagan bo'lsam-da, kerak ekanmanki, hammasi tashvishlanib sorayapti, lekin balki ozlari bilmas-u, ammo nima qilib qoyganimni sezib turgandek, ehtimolki, sezib kelayotgandek, bilgilari kelyapti nima qilib qoyganimni.

Ukam ham keldi qishloqdan katta sumkasini kotarib, lekin kirishi bilanoq nima qilib qoyganimni soramadi, avval quchoqlab, ikki yuzimga yuzlarini salgina tegizdi, keyin "Assalomu alaykum, aka, yaxshimisiz?" deb siniq jilmaydi, xuddi on yil korishmagandek galati bo'lib ketdim: ukam-ukam deb yuraveribman, bu ham tort bolaning otasi bo'lib, sochlariga oq oralab ketibdi-ya!

Ukam otirgandan keyin:

- Qani, omin! – deb fotihaga qol ochdi.

Omin qildik.

- Bolalaring yaxshimi, kelin qalay, ozing yaxshi yuribsanmi, qiynalmayapsanmi? – dedim. – Bu soching ham oqarib qolibdi-ya?

- Ha, endi, qirqqa boryapmiz, aka, - deb ukam yana jilmaydi. – Keyin, zotimiz ham shunaqa shekilli. Bolmasa, hayot yomon emas, kunimiz otib turibdi-ku. Jiyanlaringiz ham yaxshi, bobomga men boraman, meni olib borasiz, deb talashib qoldi hammasi.

- Qalay, qishloqda nima gap? – deb ichimni timdalayotgan maqsadga ozim otdim.

- Qishloq, xudoga shukr, tinch, - deb ukam ornidan turdi-da, sumkasini olib, oshxonaga otdi.

- Ey, shuncha yukni kotarib nima qilarding, - dedim.

- Mayli, ozingizning uydan, - dedi ukam.

- Tashvish qipsan-da, - dedim. – Mundoq otir, gaplashaylik. Nima gap ozi, nega shuncha yoldan kelib yuribsan? Nima deyishyapti qishloqda?

- E-e, kimning kim bilan nima ishi bor, aka, - dedi ukam, - hamma ozingning tashvishi bilan. O'tgan kuni Abdualim aka, sinfdoshingiz, qizini uzatgan edi, Hamroqul aka bilan quda bo'ldi, toyda tort-beshtasi mendan “Akangiz nega bunaqa qilib qoyibdi?”, deb soradi.

Angrayib qoldim.

- O'tgan kuni?!

- Ha, otgan kuni, - deb ukam menga hayron qaradi. – Nima edi?

- Men ishga, mana, bugun bormadim-ku? - dedim.

- Ishga bormaganingizni men bugun eshitdim, - dedi ukam, - lekin nima qilib qoyganingizning gapi anchadan beri yuribdi. Xolmurod akaning otganiga qancha bo'ldi, bir yarim oymi, ikki oymi, ishqilib, oshanda Rizo bo'lam ham: “Akang nima qilib qoygan ozi, bu akangdan sorasam, tayinli gap aytmaydi”, dedi. Akamni bilasiz-ku, bunaqa bo'lsa, bilganini ham bilmadim, deydi.

- Qiziğ-u, hech nima qilib qoymagan bo'lsam, akam nimani biladiyu Rizo bo'lamga nimani aytadi? - dedim.

- Oldingi bozorda Sultonov mast yurgan ekan, u ham “Akang nima qilib qoygan ozi?”, deb yopishib oldi, “Sizga oxshab kop ichib bozorjoyda ag'rab qolibdi”, deb qutuldim. Opam ham qishloqqa kelib, “Bu akang bir nima qilib qoygan, konglim sezgan edi”, deb doimgi diydiyosini boshladi, yig'lab akamnikiga boribdi, akam meni chaqirib, “Bu erda vahimaning uyasini yasaguncha, bir borib, nimaga bunday qilib qoyganining xabarini bilib kelsang-chi”, dedi. Bunga ham ikki hafta bo'ldi-yov. Hammasi gapiraverganga ozimning ham konglim tinchimadi.

ertalab Jizzaxga ham tushib otdim, ozi ishda ekan, kelinga ham xavotir qilmanglar, ozim Toshkentga borib kelaman, dedim.

- Nima, Jizzaxga ham boribdimi nima qilib qoyganim? – deb hayronligim on chandon oshdi.

- Jizzaxdagilar eshitmay qoladimi? Boshqa yoqdagilar ham eshitgan bolishi kerak, – dedi ukam xotirjam.

- Qaysi boshqa yoqdagilar? – deb soradim hovliqib.

- Ha, endi, bunaqa gap yotmaydi, hamma yoqqa ketadi-da, - dedi ukam.

Nima boluyapti ozi, a? Nima qilib qoyganman, yana bu nima qilib qoyganim qachon, qanday qilib qishloqqa, yana ozim bexabar, bexabarligimni ham bilmasimdan bir-yarim-ikki oy oldin, balki undan ham oldinroq hamma yoqqa qanday qilib tarqalgan, buni men qanday qilib bilmay qolganman, axir, hamma ana shu tarqalib ketgan narsa mening bir nima qilib qoyganim-ku, shu paytgacha nima qilib qoyganimdan qanday qilib ozim bexabar yurganman? Sira aqlga sigmaydigan ana shularni oylayman deb umuman kalam ishlamay qoldi.

- Aka, hali bozor qaytmadi, a? – deb soradi ukam.

- Hali qaytmaydi. Nima edi? – dedim.

- Ertaga erta qaytaman. Jiyanlaringizga u-bu olay, – deb ukam ruxsat soradi, - kechqurun otirarmiz. Bu akam ham kelsa kerak, boya telefon qiluvdim.

Ukam bozorga ketdi, men bilan otirishga kongli bormadi shekilli, har qalay, ayadimi, yo boshqa men bilishim mumkin bolmagan bir narsani biladimi, ishqilib, doim ochiq gaplashadigan ukam uncha ochilmadi, gapirganida ham mendan kozini olib qochib otirdi.

Yana telefon bilan yolgiz qoldim, uyimdan tashqaridagi dunyoning xabarsimi shu qutiga ulangan, u yoqda mendan boshqa, lekin ichida mening nima qilib qoyganim ham qalqibqalqib tarqalib borayotgan hayot harakatda, uyda telefonga termilib otirganim bilan u yoqda bir nima qilib qoygan boshqa ozim shu nima qilib qoyganini bilolmay hamma joralarimdan, meni bilgan-bilmagan odamlardan nima qilib qoyganini sorab-surishtirib yurgandek, hatto unga mening mutlaqo aloqam yoqdek ham tuyulib, kerak bolsa, nima qilib qoyganini ozi bilib olsin, deb qol siltashgacha ham bordim. Lekin joralarga, aka-ukang, qarindosh-uruqing, hamqishloqu hamshaharlaringga qol siltay olmaganingdek, ozingga ham qol siltay olmaysan, halizamon oz bolalarim maktabdan nima qilib qoyganimning gapini kotarib kelsa, ularga ham javob berishim kerak. Boshqalar, hatto aka-uka, opa-singillarim ham oz hayotini mensiz, mening qilganqilmagan ishlarimsiz yashayveradi, lekin oilam, bolalarim mensiz yashamaydi-ku, ozimdan har qancha qochmay, bularni ozimdan xalos qilib ketolmayman. Mening nima qilib qoyganim, birinchi orinda, bularga tegishli-ku! “Dada, bir nima qilganingizda nega bizni oylamadingiz? Siz bilan faxrlanib yuribmiz-ku, siz bolsangiz bunaqa qilib qoyibsiz”, deb aytishsa! Aytadilar ham, chunki ikkalasini ham fikrli qilib ostiryapman, ozim “Mening sizlarga beradigan boyligim shu – oqish, ilm”,

deganman, o'zim bergan boylik-aqldan kelib chiqib nima qilib qo'rganimning savolini albatta o'zimdanda soraydilar. Lekin bolalarim ham soraydigan nima qilib qo'rganman o'zi?

Bu o'rtada Normurod, Usmon, Ahmad, Said sim qo'qdi, yana besh-olti uzoqroq o'gaynilarim, hatto "O'zimizning Jonqovul nima qilib qo'ryibdi?", deb Mahmud aka ham soradi, Ibrohim ishga bormaganimni goshanishinlik deb ma'qulladi, nima qilib qo'rganimni ma'qullamadi, bari bir, nimaligini u ham aytmadi, Orziqul haqirlik maqomining yukini tushuntirdi, o'glim maktabdan kelib, raketkasini oldida, tennisga ketdi, salom berib, keyin indamaganidan bildimki, hamma gapdan xabari bor, ichida qiynalib yuribdi, qizim, dugonasi aytib ketdi, tushdan keyingi mashg'ulotga qolibdi, xotinim ishdan uch marta "Och o'tirmang ta'gin", deb sorab qo'rdi...

Uyga qamalib, xuddi quduq qazayotgandek, tobora chuqurlab borayotgandek, o'ylayman, tubiga etolmayman, lekin nima qilib qo'rganimning oyi tumonatning xayolida kezib yuribdi, bilyapmanki, ular faqat nimadir qilib qo'rganimni biladi, xolos, lekin aynan nima qilib qo'rganimni hech qaysi bilmaydi, ularning xayolida shunday bir tashvishning o'zigina bor, agar aniq bilganlarida mendan tashvishlanib soramas, nima qilib qo'rgan bo'lsa, o'zi javob beradi-da, deb qo'l siltab qo'ya qolgan bo'lar edilar. Shundan kelib chiqib bilamanki, nima qilib qo'rgan bo'lsam ham, o'zim bilishim kerak, nima qilib qo'rgan ekanman deb, zo'r berib o'zimni kavlayman.

Tu'gilib, esimni tanibmanki, esimda qolgan qilguliklarimni bir-bir eslashga urinaman, lekin nima qilib qo'rganimni o'zim ham aniq bilolmayman. yo juda zo'r bir odamning orniga tu'gilib, u qilishi kerak katta-katta ishlarning orniga maydachuyda yumushlarni bajarib yurganmikanman? Universitetga zo'rqa ilinganimda, ham men bechora kirdim-ey, deb xursand bo'lib, ham o'zimga oxshagan bir bechoraning orniga otdim shekilli, deb ezilib, keyin o'zimni oqlash uchun nuqul beshga o'qiganman. Lekin mening o'rnimga o'tishi mumkin bo'lgan osha bechora men o'tgan to'siqdan o'ta olmagan-ku, o'rniga men tu'gilgan osha zo'r odam o'zi tu'gilganda ham men duch kelgan to'siqlardan o'ta olmay, menday ham odam bo'lmasligi, katta ishlarni qilish tugul, zo'rqa kun ko'rib yurishi ham mumkin edi-ku! yoshligida qanaqa yorqin umidlar tu'gdirgan odamlarning qanchasi devor kavagida qolib ketgan! Xo'p, birovning orniga tu'gilib, uning vazifasini bajarib yurgan bo'lsam-da, aka-uka, opa-singillarim o'zimniki, joralarim osha tu'gilmagan birovga emas, o'zimga jora-ku, to'g'rimi? Hammasi mendan boshqa birovning emas, mening o'zimning nima qilib qo'rganimni sorayapti, shunga javobni tu'gilmagan, tu'gilishi ham noma'lum bo'lgan osha birovdan emas, mendan sorayapti, men esa nima qilib qo'rganimni o'zimdanda bilolmay oyda otiribman, shu nima qilib qo'rganimni bilolmay oyda o'tirganim balki nima qilib qo'rganimning o'zidir?

2001 yil